

## AMIR TEMURNING HINDISTONGA QILGAN HARBIY YURISHI

Boydedayev Dostonbek Xusniddin o'g'li

*Namangan davlat universiteti Tarix yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada O'zbek davlatchiligi tarixidagi eng buyuk va ulkan saltanat asoschisi va hukmdori- Sohibqiron Amir Temur tomonidan Hindistonga qilingan harbiy yurishning sabablari hamda natijasi haqida fikr yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Amir Temur, Hindiston, Dehli sultonligi, Movarounnahr, jangovar fillar, braxman, hind rojalari, Sulton Mahmudxon Dehlaviy, Malluxon.*

### KIRISH

Amir Temur tomonidan markazlashgan davlatga asos solingandan so'ng, mamlakat hududini kengaytirish siyosati olib borildi, saltanat hududiy jihatdan benihoya kengaya boshladi. Natijada XIV asr oxirgi choragiga kelib, ulkan hududda markazlashgan davlat qaror topdi, Amir Temur esa saltanat hududini kengaytirish uchun navbatdagi nishon sifatida Hindistonni tanladi.

Hindiston yurishi davomida bo'lib o'tgan voqea-hodisalarga ushbu maqolada batafsil to'xtalib o'tishga harakat qilamiz.

Asosiy qism: XIV asrda Hindiston tamomila tarqoq feodal mamlakat bo'lib, ko'plab musulmon va hind feodal davlatlari bir-birlari bilan uzluksiz kurash olib borgan. 50-60-yillarda sultonning vassal rojalar bilan olib borgan kurashlari natijasida Bengaliya, Sind, Orissa, Gujarat g'oyat xonavayron bo'lgan. 1366-yilda Gujaratdagi qo'zg'olon bostirilgan, shu tariqa feodal tarqoqlik kuchayib, markaziy hokimiyat haddan tashqari zaiflashib qolgan[1].

Natijada Hindistonga tashqi xavf yanada ortgan. XIV asrning 70-80-yillarida Dehli sultoni o'z qo'lida qolgan ozgina yerlarni ham himoya qilishga qodir emasdi. Hindistonga harbiy yurishlar ko'payib ketgan. Ana shunday yurishlardan biri Amir Temur tomonidan amalga oshirilgan.

Amir Temur Hindistonga yurishdan avval bu yurishning ramziy ma'no ifodalashini ta'kidlaydi. Jumladan, u quyidagicha fikrga keldi: "X asrda G'azna shahridan chiqib, G'andara viloyatini ilk bora bosib olgan Sobuqtegin va Hindistonning shimoliga 17 marta yurish qilgan uning o'g'li mashhur Mahmud G'aznaviydan boshlab har bir turk va mo'g'ul xoqoni uchun tabiiy bir hol edi"[2]. Shu sababdan ham Temur ushbu yurishga anchadan beri shakllanib kelgan an'ananing davomi sifatida qaradi.

Amir Temur o'z ixtiyori bilan taslim bo'lib, moli omon to'lagan shaharlarga tegmagan, qo'shinlarini bunday shaharlarga kiritmagan[3]. Bu uning uchun odat tusiga kirgan edi. Hindlar bunday yo'l tutishni istamaganlari ham Amir Temurning ular ustiga yurishiga sabab bo'lgandir. Xullas, Amir Temur 1388-1389-yillarda Hindistonga yurish qiladi va Dehlini egallaydi[4]. Amir Temur bu yurishga ham boshqalariga bo'lgani kabi tizimli va tartibli ravishda tayyorgarlik ko'rdi. Bu haqida "Temur tuzuklari" asarida quyidagicha ma'lumot keltirilgan:

"Dastavval, farzandlarim va amirlarimning ko'ngli, o'y-fikrlarini bilish uchun ularga maslahat soldim. Amirzoda Pirmuhammad Jahongir: "Agar Hindistonni olsak, uning oltinlari

bilan butun yer yuzini egallaymiz”, - dedi. Amirzoda Muhammad Sulton esa: “Hindistonni olamiz-u, biroq bunga to’siqlar bor: birinchisi- daryolar, ikkinchisi- o’rmon-u to’qaylar, uchinchisi- to’liq qurollangan sipohiyalar va odamga hamla qiluvchi quturgan fillari ko’p”, - dedi. Amirzoda Sulton Husayn: “Agar Hindistonni qo’lga kirita olsak, to’rt iqlimga hukmron bo’lumiz”, - dedi. Amirzoda Shohruh dedi: “Men turklarning qonunlarida o’qigan edimki, jahonda 5 ta shon-shavkatli podshoh bordir. Ularning ulug’vorligini hurmatlab nomlari bilan atamay laqablari bilan aytadilar: Hind podshosini- roy, Rum podshosini- qaysar, Xitoy va Chin-u Mochin podshosini- fag’fur, Turkiston podshosini- xoqon, Eron-u Turon podshosini- shahanshoh deydilar. Shahanshon hukmi hamisha Hindistonda joriy etilardi. Hozir Eron-u Turonzamin bizning qo’limizda bo’lgani uchun, Hindistonni ham fath etmog’imiz lozimdir”[5]. Bundan ko’rinadiki, juda ko’plab amirzoda va beklar Hindiston yurishini qo’llab-quvvatlaydilar.

Amir Temur Dehlida ro’y berayotgan voqaealardan yaxshi xabardor edi. Bu voqealarga aralashish uchun uning talaygina asosi ham bor edi. O’zaro nifoqlar va birodarkushlik oqibatida nafaqat osongina o’ljaga, balki biror mushkulotsiz zabt etish mumkin bo’lgan boshsiz va jilovsiz o’lkaga aylangan edi.

Shuning uchun ham Amir Temur tomonidan chaqirilgan qurultoyda g’ayridinlarga qarshi muqaddas jihot rasman dastur qilib olinadi. Qaror bunday izohlandi: “Islom g’animlariga qarshi kurashmoq har bir musulmonning eng muqaddas burchidir, deyiladi Qur’onda...”.

Sohibqironning nabirasi Pirmuhammad o’sha paytda Kobul, Qunduz, Bomiyon va Qandahor viloyatlarini hamda Hindistonga olib o’tuvchi mashhur dovonlar, jumladan Haybar dovoni joylashgan hududlarni o’z ichiga olgan “Kichik Hindiston” (hozirgi Afg’onistonning bir qismi)ga noibi hukmdor edi.

Aynan shu o’lkadan hujum boshlash qulay edi. Temur yo’lga tushdi va Andarobga yetganda chodir tikdi.

Amir Temur “qora ko’ylaklilar” deb nom olgan tog’lik kofir jangarilar bilan jang qildi. Chunki Hindiston yurishi muvaffaqiyatsizlikka uchragan taqdirda chekinish payti bunday xavfli dushman orqa tarafda qolishi juda ham xavfli edi. Bu jangda Amir Temur qo’shinlari katta qiyinchilik bilan bo’lsa ham g’olib chiqishadi.

Hindiston yurishi uchun Amir Temur bilan birga Saroymulxonim va Ulug’bek ham yo’lga chiqqan edi. Ular Amudaryodan o’tishganida Hirotdan Shohruh ham o’z qo’shini bilan kelib qo’shiladi va otasi hamda farzandi bilan 1398-yilning avgustiga qadar birga bo’ladi[6].

Temur avgustda Andarob orqali Kobulga keladi. Keyin Shohruhni Hirotda, Ulug’bek va Saroymulxonimni Samarqandga qaytarib yuboradi, o’zi esa 20-avgust kuni Kobuldan chiqib, Hindiston sari yo’l oladi.

Dehli sultoni Sulton Mahmudxon Dehlaviy bilan jang 1398-yil 17-dekabr kuni yuz beradi.

Malluxon 10 000 otliq, 20 000 piyoda, 120 zanjir jangchi fillarni saflagan. Fillarning har ikkala tish suyaklariga maxsus qilichlar kiydirilgan bo’lib, ular bu qilichlarni suqishga o’rgatilgan. Bundan tashqari filning ustiga kungurali taxt o’rnatilgan bo’lib, unda 5-6 ta o’q otuvchilar o’tirgan. Har ikki filning orasida to’p va to’pchi bo’lgan. Fillarga sovut ham

kiydirilgan. Fil qatorlari orasidan “yonar ko‘zalar” otuvchi radandozlar va ko‘p marotaba sakrab uchuvchi- temir uchli uzun portlovchi o‘q otuvchilar o‘rin olgan[7].

Amir Temur esa fillarning yo‘nalishi bo‘ylab chuqur handaqlar qazdiradi, o‘tkir tig‘li uchburchak shaklidagi temir sanchqilar yasatgan, bu sanchqilar fillar yo‘nalishiga sanchib chiqilgan. Ot va tualarga ortilgan poxollarga o‘t qo‘yilib, fillar tomoniga yugurtiriladi. Kelayotgan olovdan, sanchilayotgan sanchqilar og‘rig‘idan fillar har tomonga dovdirab qocha boshlaydi va hindlarning saflarini tizg‘itib yuboradi.

Jangning ikkinchi qismida ruhiy hujum bo‘ladi: karnay-surnay, burg‘u va katta-kichik nog‘oralalar ovozidan butun qo‘shin junbushga keladi. Pirmuhammad Mirzo filga tashlanib, uning xartumini kesib tashlaydi. 16 yoshli Xalil Sulton esa filbonni yiqitib, uning filini xuddi sigirdek haydab bobosining qarorgohiga olib keladi. Jang kechgacha davom etdi. Sulton Mahmud va Malluxon Dehli ichkarisiga yashirinishdi.

Jang shu yo‘sinda davom etayotgan bir paytda qal‘a ichidan bir braxman Amir Temurga agar qal‘ani egallashdan voz kechsa yana 21 yil umr ko‘rishini, aksincha bo‘lsa 7 yildan so‘ng vafot etishini bashorat qilib qichqiradi. Avvaliga Amir Temur bu so‘zlardan ensasi qotib, o‘ylanib qoladi. Lekin o‘zini qo‘lga olib, jangni davom ettiradi. Chunki bu qo‘shin ruhiyati uchun muhimligini bilardi.

Shu tariqa Amir Temur Dehli ustidan g‘alaba qozondi. 1398-yil 20-dekabrda Dehli Jome’ masjidida Amir Temur nomiga xutba o‘qilib, rasman Hindiston Sohibqiron izmiga o‘tdi. Lekin yillar o‘tgach, braxmanning bashorati o‘z tasdig‘ini topdi. Braxman buni rostdan ham sezgan yoki yo‘qligi hech kimga ayon emas.

Amir Temur 1399-yil bahorida o‘z yurtiga qaytdi va g‘alaba sharafiga Samarqandda masjid qurishni buyuradi. Masjid loyihasi 1399-yil 10-may kuni tayyor bo‘ldi va qurilish ishlari o‘sha kundanoq boshlandi. Qurilishda Fors, Ozarbayjon va Hindistondan kelgan 200 ta tosh tarosh usta ishladi. 500 kishi tosh kesish uchun tog‘ga jo‘natildi. Kesilgan toshlarni tashishda Hindistondan olib kelingan 95 ta fildan foydalanildi.

Amir Temurning Shimoliy Hindiston kabi mintaqalarga harbiy yurishini, bir tomondan, ularni o‘z ta’sir doirasiga tortishdan iborat edi, deb hisoblasak, ikkinchi tomondan, tarixiy-madaniy jihatlardan yaqin mintaqani birlashtirish niyatida amalga oshirilgan harakatlar edi, deyilsa har jihatdan to‘g‘ri bo‘ladi[8].

Xulosa: Ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, Amir Temur Hindiston yurishini amalga oshirishga qaror qilgandan so‘ng, ushbu jangga har tomonlama tayyorgarlik ko‘radi, qo‘shin va uning ta’minoti, ruhiy holati masalalariga tizimli va tartibli yondashadi. Raqib va uning jangga kirish uslubi noodatiy ekanligi, masalan, jangda bevosita fillar ishtirok etishidan kelib chiqib, tayyorgarlikni ham noodatiy bir shaklda amalga oshiradi, bu esa yakunda g‘alabani ta’minlagan omillardan biri bo‘ladi.

Bundan tashqari, Amir Temur Hindistonni egallash orqali uzoq davrdan buyon ushbu hududda davom etib kelayotgan feodal tarqoqlik, ichki nizolar, hind rojalari o‘rtasidagi o‘zaro kurashlarga yakun yasadi hamda mintaqada keyinchalik barqarorlik shakllanishi uchun asos yaratdi. Shuningdek, Hindistonni o‘z saltanatiga qo‘shib olish orqali Markaziy Osiyo va Hindiston o‘rtasidagi munosabatlarni yanada jadallashtirdi. Bu uning xalqimiz oldidagi ko‘plab buyuk xizmatlaridan biri hamda buyuk sarkardalik salohiyati va ulug‘vorligining dalillaridandir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Азамат Зиё. Узбек давлатчилиги тарихи. -Т.: Шарк, 2001. -Б. 161.
2. Аъламов М. Амир Темур жахон тарихида. -Т.: Шарк, 1996. -Б. 58.
3. Ahmedov B. Temur tuzuklari. -Т.: Yoshlar, 2018. -В. 73, 74.
4. Люсьен Кэрэн. Амир Темур салтанати. -Т.: Маънавият, 1999. -Б. 82-84.
5. Muhammadjonov A. O'zbekiston tarixi (IV asrdan XVI asrgacha). -Т.: Sharq, 2017. -В. 120.
6. Содиков Х. Амир Темур салтанатида хавфсизлик хизмати. -Т.: Art flex, 2010. -Б. 340-345.
7. Sarimsokov A., Dexkanov N. Jahon tarixi (Osiyo va Afrika mamlakatlarining o'rta asrlar tarixi). -Т.: O'zkitob savdo, 2021. -В. 95, 96.
8. O'roqov D., Sharopov A. O'zbekiston tarixidan universal qo'llanma. -Т.: Akademnashr, 2013. -В. 92.